

## JADIDCHILIK HARAKATLARIDA ABDULLA QODIRIY ASARLARINING O'RNI

XUSANOVA DILRABO BAXODIR QIZI

*Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat  
texnika universiteti Elektr energetika fakulteti  
“Alternativ energiya manbalari” kafedrasi talabasi*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy ijodidagi millatparvarlik, yurt qayg'usi va milliyqadriyatlarimiz ,xalqning orzu va kechinmalarini yuksak tasvirlab bergenligi va bu badiiy yuksak asarlarning jadidchilik harakatlarida o'rni haqida so'z boradi. Abdulla Qodiriy o'z asarlari bilan o'sha paytda yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda katta hissa qo'shgan. Abdulla Qodiriy o'z romanlari bilan xalq hayoti, dardlari, orzu-armonlarini qanday tasvirlash, milliy xarakterlarni qanday yaratish, ularning o'y-kechinmalarini qanday mohirona foydalanishining ajoyib va betakror bir namunasini yaratib bergenligi borasida.

**Kalit so'zlar:**Qodiriy ijodi,vatanparvarlik,jadidchilik harakati,Mark Ris, “O'tgan kunlar”romani.

Abdulla Qodiriyning so'zga, badiiy tilga, o'zbek adabiy tiliga e'tibori juda kuchlidir. Uning so'zida insonni o'ziga bog'lab turadigan mustahkam ma'naviy iplar, odamni o'ziga ohangrabodek tortib turgan kuch-quvvat bor. Uning romanlarida har bir qahramonning nutqini hissiyotsiz va ta'sirsiz o'qiy olmaymiz. Chunki har bir qahramonni tirik va voqealar rivojini chetdan turib emas, balki aynan uning ichida bo'lgandek his etilishi ham, ijodkorning buyuk so'z san'atkori ekanligidan dalolat beradi.

Qodiriy ijodini nafaqat o'zbek olimlari balki, chet el olimlari ham o'rgangan. Xususan, adabiyotshunos E.Nabi adib asarlarining janr xususiyatlari, millatparvarlik g'oyalari va qadryatlarini o'rgangan. Bundan tashqari adib ijodini amerikalik va angliyalik E.Olvort, A.Beningsin, E.Uimbush, Robet J.Barret, D.Montgomeri, G.Morris, H.Battersbininglar O'rta Osiyoni o'rganishga bag'ishlangan izlanishlarida bayon etgan. Hozirgi kunda ham adib ijodi o'rganilmoqda. Xususan, amerikalik tadqiqotchi Mark Riz Abdulla Qodiriyning „O'tgan kunlar” asarini ingliz tiliga tarjima qilish uchun 15 yil umrini sarflagan.

Amerikalik tadqiqotchi Mark Riz Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanini ingliz tiliga tarjima qilish uchun 15 yil umrini sarfladi. U «Gazeta.uz»ga bergen intervusida tarjimadagi qiyinchiliklar, nima uchun asar shunchaki muhabbat hikoyasi emas, avvalo islohotlar g'oyasi haqida ekanligi va qanday qilib Qodiriy asar orqali muhim ijtimoiy muammolarni olib chiqqanligi haqida so'z yuritdi.

U shuningdek jadidlar va ularning g'oyalari bugun qanchalik hayotga tadbiq etilganligi haqida fikr bildirdi. «O'tkan kunlar» tarjimasi uchun asos sifatida Mark Ris 1926 yilda nashr etilgan matnning asl nusxasidan foydalandi [1].

Mark Ris Abdulla Qodiriy hayoti va asrlarini chuqur taxlil qilgan holda “Jadidlar communist va ateist bo‘lgan degan taxminlar ham mavjud. Men Qodiriy ateist bo‘lganiga ishonmayman. Men boshqa jadidlar haqida gapira olmayman, chunki men ular bo‘yicha ixtisoslashgan emasman, ammo Islom dini «O’tkan kunlar»ni qamrab olgan. Qodiriy o‘z xalqini tanqid qilgan degan tanqidlar mavjud, ammo romanning butun mohiyati ham shunda. Romanda birinchi eshitadigan tovushingiz bu — azon. Bu birinchi jumla. Va eng oxirgi jumlalardan biri — bu janoza. Go‘yoki Qodiriy islohot g‘oyasining tug‘ilishi va o‘lishi haqida gapiro yetgandek va bu shubhasiz Islom bilan bog‘liq. Shuning uchun, men uning ateist bo‘lganiga ishonmayman [2].

Qodiriy shu tarzda, vaqt bilan o‘ynaydi, deb o‘ylayman. Bu o‘tmish haqidagi roman muallifning bugunini kelajakka ogohlantirishi sifatida tasvirlaydi. Bu qarshilik haqidagi roman, xotira va yo‘qotish haqidagi roman. Bu sotsialistik realizm romani emas.”

2021 yildagi Abdulla Qodiriy haqidagi tushuncha sovet olimining tushunchasidan farq qiladi. Sovet olimlari bu narsalarni yashirishga harakat qilishardi, chunki bu ularga qarshi ishlatilishi mumkin edi, xuddi Amir Temurni o‘rganish kabi. Jadidchilik turli tarixiy davrlardagi turli odamlar uchun turli narsalarni anglatadi.

Abdulla Qodiriy va jadidchilik masalasi mavzusi qodiriyshunoslikninggina emas, adabiyotshunosligimizning ham muhim va dolzarb, lekin shu paytga qadar etarlicha e’tibor berilmay kelayotgan masalalaridan. Muhimligi shundaki, Abdulla Qodiriydek o‘zbek adabiyotida yangi yo'l-yo'nalishni boshlab bergen, o‘zbek romanchilik maktabiga asos solgan siyemoning jadidchilik nomi bilan tarixga kirgan XX asr boshidagi etakchi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy harakatdan chetda turishi mumkin emas edi. Qodiriy aslida, jadidchilikning adabiyotda namoyon bo‘lishidir. «O’tkan kunlar», birinchi navbatda jadid adabiyotining, ikkinchi nomi bilan aytganda, yangi o‘zbek adabiyotining eng betakror mahsuli. Sovet mafkurasi tomonidan bir vaqlar «xalq dushmani» ramziga aylantirilgan «jadid» so‘zini tilga olish qo‘rquvining hali-hanuz unitilmaganligidir. Jadidchilik atalmish hodisaning tariximizda kechgani, uning ko‘hna Turkiston madaniy-ma’naviy yangilanishida buyuk omil bo‘lgani [3].

Turkiston jadidchiligi XIX asr oxiri — XX asr boshlarida yurtimizda maydonga kelgan muayyan ijtimoiy-siyosiy sharoit mahsuli. U siyosiy hayotda 1892 yilgi erk va ozodlik kurashlaridan 1917—1918 yillarda Turkiston muxtoriyatini e'lon qilish va istiqlolchilik harakatlarigacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga qamrab oladi. Madaniy-ma’naviy ishlarda XIX asrning 90-yillarida ochilgan «usuli jadid» maktablaridan o‘nlab yoshlarni taraqqiy qilgan mamlakatlar oliy o‘quv yurtlariga yuborish va zamonaviy milliy kadrlar etkazish, nihoyat, o‘z milliy universitetini ochish darajasigacha

ko'tariladi. Milliy matbuotni maydonga keltiradi, milliy teatrga asos soladi. Badiiy ijod sohasida esa, oddiy maishiy-axloqiy mavzular tasviridan o'zlikka talpingan otalarimizning turmush va intilishlarini, murakkab va g'alayonli ruhiyatini butun ziddiyati bilan ochib beruvchi keng diapazonli, rang-barang janrlarga ega va adabiyotgacha bo'lgan yo'l bosib o'tiladi. Shularga ko'ra, Turkiston jadidchiligi XIX asr oxirlaridan shakllana boshlagan, XX asr boshlarida to'la namoyon bo'lgan, oktyabr voqealaridan keyin ham 20-yillarning o'rtalariga qadar qizg'in davom etgan, 1929 yildan keyin «Kim kimni yengadi?» degan shior sovetlar foydasiga hal bo'lgach, jadidchilik harakati yolg'on talqin qilina boshlagan. Binobarin, yangi o'zbek adabiyotimizning eng sara namunalari maydonga kelgan 20-yillarning birinchi yarmi jadidchilikning so'nggi bosqichi. Jadidchilik ma'naviy-madaniy sohalarni yangi izga solgani singari adabiyotda ham uch buyuk insonlarni o'rtaqa chiqaradi. Cho'lpon yangi o'zbek she'ri binosiga asos soldi. Fitrat yangi adabiy-badiiy tafakkurni boshlab berdi, chinakam dramaturgiya namunalarini yaratdi. Abdulla Qodiriyl o'zbek romanchiligining otasi bo'lib tarixga kirdi [4].

Abdulla Qodiriyning shakllanishida jadidchilikning roli va o'rni masalasi. Abdulla Qodiriyl Turkistonda jadidchilik harakat sifatida endigina nish urayotgan, «usuli jadid» maktablari o'lkada endigina ochila boshlagan bir paytda tug'iladi. O'shanda yurtimizga mashhur «Tarjimon»ning kela boshlaganiga 10 yildan oshgan edi. «Usuli jadid»ning -xalq orasiga kirganiga rosa 10 yil to'lgan edi. Bir yil oldin — 1893 yili uning nazariyotchisi va amaliyotchisi Ismoil Gasprinskiy Majid G'anizoda degan shirvonlik shogirdi bilan o'sha davr Turkistonining ahamiyatiga ko'ra ikkinchi shahri hisoblangan Samarqandda bo'lib, 40 kun «usuli jadid» saboqlarini o'qigan edilar. Abdulla maktab yoshiga etgan yillarda yangi usul maktablari uchun bir nechta darslik bosilib chiqqan edi. Yosh, har narsaga o'ta qiziquvchan, uning ustiga rus-tuzum maktabiga qatnayotgan Abdulla Qodiriyningning bulardan bexabar bo'lishi ehtimoldan uzoq, albatta. Turkiston adabiyotini zimdan kuzatib kelayotgan A. N. Samoylovich 1909 yildayoq bu erda yangi adabiyot maydonga kelayotganini ma'lum qilgan va haqiqatan ham «Milliy she'rlar» yozila boshlagan, 10-yillardan teatr asarlari, zamonaviy nasr va o'tkir publisistika davriy matbuot va noshirlikni shoshirib qo'ygan edi. Binobarin, Abdulla Qodiriyl «Padarkush» pesasi ta'sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborganini o'zi ham payqamay qolgan» ekan, bunda hech bir mubolag'a yo'q. U Vatan bag'rida etilib, to'lib-toshib kelayotgan jadidchilikdan bahramand bo'lgan, boshqacha aytganda, milliy uyg'onish havosidan nafas olgan va o'z faoliyati bilan uni yanada mukammallashtirish istagi bilan yashayotgan yoshlardan edi. Abdulla Qodiriyl asarlarining, birinchi navbatda, «O'tkan kunlar»ning jadid adabiyotiga aloqadorligi masalasi. Agar jadidchilik sifatida talqin qilinadigan bo'lsa, bu davr adabiyotini jadid adabiyoti, «O'tkan kunlar»ni esa, uning eng go'zal namunasi sifatida e'tirof etmoq kerak bo'ladi. Istiqlol davrida esa, u «istiqlol qayg'usi»ni o'zida tashigan

asar sifatida tahlil etilmoqda. Bunga qo'shimcha qilib, romanni «o'tkan kunlar»dan «kir» emas, «nur» topgan, benihoya og'ir zamonlarda, hayotlarining eng baxtsiz onlarida ham yuksak ichki madaniyat, nozik didlilik, komil axloq va odob namunalarini namoyish etgan otalarimiz turmushi, go'zal oilaviy munosabatlar, betakror milliy tasviri orqali o'zlikni tanitmoqqa qaratilgan asar ham deyish mumkin. Bu esa, jadidchilikning, boshqacha aytganda, milliy uyg'onishning bosh xususiyati, millatni millat qiluvchi an'analar edi. Yuqoridagilarga ko'ra, Abdulla Qodiriy jadidchilik va jadid adabiyotining markaziy siymolaridandir.

Abdulla Qodiriy va u kabi millatimizning bedor farzandlari ko'z tikkan manzillari yuksak, ko'zlagan ezgu maqsadlari o'z darajalariga yarasha juda ulug' edi. Va shuning uchun ham ularning hayotdan olgan zarbalari ham o'sha miqyosda bo'ldi. Millat va xalq dardi, millat va xalqning orzu-ehtiyojini hamma narsadan ustun qo'ygan Qodiriy aynan ana shu hayotiy tamoyili va e'tiqodi uchun ham shirin joni bilan badal berishga to'g'ri keldi. Uning ijodiy faoliyati bor-yo'g'i yigirma yil davom etdi. Shu qisqa fursat ham g'oyat keskin va murakkab bir davrda, doimiy ta'qib va tahdidlar ostida, haqiqat va ezgulik uchun bo'lgan tengsiz kurashlarda o'tdi. "Men to'g'rilik orqasida bosh ketsa ham, "ix" deydirgan yigit emasman", – deb yozgan edi u mustabid tuzum tomonidan 1926- yili ilk bor qamalgan kunlarida. Tomchida quyosh aks etgandek, mardona va samimi aytilgan bu so'zlarda Qodiriyning buyuk shaxs va adib sifatidagi qahramonona siyoshi mujassam, deyish mumkin. Abdulla Qodiriy qaysi mavzuda, qanday janrda asar yozmasin va ularda qanaqa voqeа-hodisalarini aks ettirmasin, hamisha hayot haqiqatiga sodiq qoladi va o'zining ijodkor sifatidagi muqaddas prinsiplariga qat'iy amal qiladi. Yuksak badiiylik va haqqoniylit, chinakam hayotiylik va insonparvarlik kabi fazilatlar Abdulla Qodiriy asarlariga joziba bag'ishlaydi va ular millionlab kitobxonlarning qalbidan joy oladi. Qodiriyning buyuk so'z san'atkorligi eng avvalo shundaki, bu romanlar o'zbek xalqining asl tabiatini, teran tafakkuri, ruhiy olami, milliy o'ziga xosliklari naqadar yorqin va haqqoniylit tasvirlanganligi jihatidan hanuzgacha tengsiz durdonalar bo'lib sanaladi. Boshqacha aytganda, Abdulla Qodiriy o'z romanlari bilan xalq hayoti, dardi, orzu-armonlarini qanday tasvirlash, milliy xarakterlarni qanday yaratish, ularning o'y-kechinmalarini qanday mohirona foydalanishining ajoyib va betakror bir namunasini yaratib berdi. Endilikda bu romanlar nafaqat o'zbek adiblari uchun, balki ko'plab milliy adabiyotlarning namoyandalari uchun ham yuksak badiiy mahorat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Taniqli yozuvchimiz Pirimqul Qodirov ta'kidlaganidek, Abdulla Qodiriy kabi ulkan so'z san'atkorlari hozir oramizda yo'q. Ammo ular erishgan ijodiy yutuqlarni, badiiy til bobidagi yuksak san'atlarini, xalq tilidan foydalanishdagi ibratlari tajribalarini davom ettirish keyingi avlodlarning zimmasida [5,6].

**Xulosa.** Barchamizga ma'lumki, Qodiriy asarlari xalqni uyg'onishga chorlagan.

Bu

ayniqsa yosh avlodga katta tasir ko'rsatgan. Undagi har bir so'z va jumla o'zida katta mano kasb etadi. Ehtimol shu sabablidir ko'pchilikning muhabbatiga sazovar bo'lган. Zero, bиргина O'tgan kunlar asari qo'lma-qo'l o'qildi, navbat kutib o'qildi. Asardan ko'pchilik vatanparlik tuyg'ularini oldi. Ammo bularga Sovet tuzumi jimgina qarab tura olmas edi. Shu sababli ham adib bevaqt vafot etdi. Biroq adibning asarlari, qilgan ishlari va xotiralari hamon yashamoqda. Xalqimiz bunday vatanparvar insonlarni aslo unutmaydi.

### Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlari
2. Normatov U., Qodiriy bog'i, T., 1995; Normatov U., „O'tgan kunlar“ hayrati, T., 1996. Umarali Normatov, Bahodir Karimov.
3. Qo'shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati. T.: Fan, 1966.
4. Mirzaev I. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi. T.: Fan, 1977.
5. <https://saviya.uz/hayot/nigoh/abdulla-qodiriy-haqida/>
6. <https://tafakkur.net/abdulla-qodiriy.haqida>